# O‘QUVCHILARDA TADBIRKORLIK KO’NIKMLARINI RIVOJLANTIRISHNING PEDAGOGIK KOMPONENTLARI

**Ismatova Sayyora Sobir qizi**
BuxDPI
13.00.01 -Pedagogika nazaryasi va ta'limotlar tarixi ixtisosligi böyicha
1-bosqich tayanch doktaranti

***Annotatsiya:*** *Ushbu maqolada umumta’lim maktablarida o‘quvchilarda tadbirkorlik ko‘nikmalarini rivojlantirishning ilmiy tahlili keltirilgan. ijodiy fikrlash. Shuningdek, kompetensiyaviy yondashuv asosida o‘quvchilarda mustaqil faoliyat yuritish, muammoli vaziyatlarni hal etish va innovatsion fikrlash ko‘nikmalarini rivojlantirishning pedagogik imkoniyatlari ko‘rsatib berilgan. O‘quvchilarda tadbirkorlik ko‘nikmalarini rivojlantirishda amaliy ko‘nikmalarni o‘rgatish, interaktiv ta’lim texnologiyalaridan foydalanish, kreativ fikrlashni rag‘batlantirish va muammolarni hal qilish jarayonlarining ahamiyati, tadbirkorlik ko‘nikmalarini baholash metodlari, o‘quvchilarning muvaffaqiyatlarini o‘lchash va ularni rivojlantirishda qo‘llaniladigan usullar ham yoritilgan.*

***Kalit so‘zlar:*** *Umumta’lim maktablari, kompetensiya, ijodiy fikrlash tadbirkorlik ko‘nikmalari, innovatsion ta’lim yondashuvlari, interaktiv texnologiyalar, amaliy ko‘nikmalar, kreativ fikrlash, tadbirkorlik ta’limi, baholash metodlari.*

**Kirish**

Zamonaviy ta’lim tizimining asosiy vazifalaridan biri o‘quvchilarda nafaqat nazariy bilimlarni shakllantirish, balki ularning amaliy faoliyatga tayyorligini ta’minlaydigan kompetensiyalarni rivojlantirishdan iboratdir. Bugungi globallashuv sharoitida jamiyat taraqqiyoti, ishlab chiqarish texnologiyalarining tez sur’atlar bilan rivojlanishi hamda innovatsion iqtisodiyotning shakllanishi ta’lim tizimidan yangi yondashuvlarni talab qilmoqda. Umumta’lim maktablarida tadbirkorlik ko‘nikmalarini rivojlantirish ta’lim tizimining ajralmas qismiga aylangan, chunki tadbirkorlik faolligi o‘quvchilarga nafaqat biznesni yuritish, balki ijodiy fikrlash, risklarni boshqarish va ijtimoiy mas’uliyatni o‘z zimmasiga olish kabi qobiliyatlarni rivojlantirishga yordam bermoqda. Tadqiqot jarayonida umumta’lim maktablarida o‘quvchilarda tadbirkorlik ko‘nikmalarini rivojlantirishning ilmiy tahliliga asoslangan yondashuvlar, metodlar va baholash jarayonlari ko‘rib chiqilmoqda. O‘quvchilarda tadbirkorlik ko’nikmalari va innovatsiyalarni rivojlantirish istiqbollari oxirgi 30 yil ichida jamiyatni turli sohalarini tubdan o’zgartirmoqda. Shu bilan birga katta mehnat migratsiyasi, rivojlanmagan ijtimoiy infratuzilma qashshoqlik va ishsizlikning yuqori darajasi, infratuzilmaning eskirganligi, kadrlar kompetentsiyalarining iqtisodiy rivojlanish strategik maqsadlariga nomuvofiqligi, intellectual mulkni himoya qilish muammolari, oliy ma’lumot olish imkoniyatlarining cheklanganligi, yuqori texnologiya va ilm-fanga asoslangan ishlab chiqarishning rivojlanmaganligi, inson kapitali va imidjiga zarur miqdordagi investitsiyalarning sarflanmasligi, malakali xodimlarning yetishmasligi, o‘rta bo‘g‘in rahbar va xodimlarning past darajadagi malakasi, ishchilarda mehnatga nisbatan rag‘batning yo‘qligi, ishchi va muhandis-texnik kasblar obro‘sining

tushgani, eskirgan ish usullaridan foydalanish kabi muammolar o‘z yechimini kutmoqda. Hozirgi kunda ta’lim tizimida amalga oshirilayotgan islohotlar o‘quv jarayonini takomillashtirish, o‘quvchilarning bilim va ko‘nikmalarini zamonaviy talablar asosida rivojlantirish hamda ularni mustaqil fikrlaydigan, ijodkor va raqobatbardosh shaxs sifatida tarbiyalashni taqozo etmoqda. Jamiyat taraqqiyoti, ishlab chiqarish texnologiyalarining jadal rivojlanishi va innovatsion iqtisodiyotning shakllanishi ta’lim tizimida kompetensiyaviy yondashuvni keng joriy etishni zarur qilib qo‘ymoqda. Shu bois umumta’lim maktablarida o‘qitiladigan fanlar, xususan texnologiya fanini o‘qitish jarayonida o‘quvchilarning kompetensiyaviy qobiliyatlarini shakllantirish masalasi dolzarb pedagogik muammolardan biri hisoblanmoqda. O‘quvchilarda tadbirkorlik ko‘nikmalarining rivojlanishi, ayniqsa, shaxsiy tashabbuskorlik bilan chambarchas bog‘liqdir. Tadbirkorlik ko‘nikmalari o‘quvchilarda yangiliklarga ochiqlik, o‘z g‘oyalarini amaliyotga tatbiq etish va muammolarni mustaqil hal qilishga tayyorlikni ta’minlab kelmoqda. Shaxsiy tashabbuskorlik o‘quvchilarning o‘zini boshqarish qobiliyati, risklarni baholash va qaror qabul qilish jarayonlarida samarali faoliyat ko‘rsatishiga yordam berib kelmoqda. Shuningdek, zamonaviy pedagogik texnologiyalar, interfaol metodlar va innovatsion o‘qitish usullaridan foydalanish texnologiya fanini o‘qitish samaradorligini oshirishga yordam bermoqda. O‘quvchilarning amaliy faoliyatga jalb etilishi, loyiha asosida ishlash, guruhli mashg‘ulotlar va muammoli vaziyatlarga asoslangan ta’lim jarayonlari ularning kompetensiyaviy qobiliyatlarini rivojlantirishda muhim omil hisoblanmoqda. Ishlab chiqarish jarayonlari yuqori darajada sanoatlashgan Buyuk Britaniya, Frantsiya, Germaniya, AQSH, Isroil, Yaponiya, Janubiy Koreya, Xitoy Xalq Respublikasi va boshqa rivojlangan davlatlar ta’lim tizimida texnologik ta’lim

tizimi ishlab chiqarishning asosiy bo'g'ini hisoblanib, jahon mehnat bozoriga malakali mutaxassislar tayyorlashning muhim bosqichlari va tashkil etuvchilaridan biri deb qaralmoqda shuning bilan bir qatorda zamonaviy ta'lim tizimida o'quvchilarning faqat nazariy bilimlarga ega bo'lishi yetarli emas, balki ularning o'z bilimlarini amaliy faoliyatda qo'llay olish qobiliyatini rivojlantirish muhim ahamiyat kasb etib kelmoqda. Texnologiya fani aynan o'quvchilarning amaliy ko'nikmalarini rivojlantirish, texnologik jarayonlarni tushunish, ijodiy fikrlashni shakllantirish hamda muammoli vaziyatlarda to'g'ri qaror qabul qilish qobiliyatlarini rivojlantirishga xizmat qilmoqda. Shu sababli ushbu fan o'quvchilarda kompetensiyaviy qobiliyatlarni shakllantirishning muhim pedagogik vositalaridan biri bo'lib kelmoqda. Bugungi globallashuv sharoitida ishlab chiqarish jarayonlarining avtomatlashtirilishi, raqamli texnologiyalarning jadal rivojlanishi hamda mehnat bozorida yangi kasblarning paydo bo'lishi yosh avloddan yangi bilim va ko'nikmalarni talab etmoqda. Bu esa ta'lim jarayonida o'quvchilarda texnologik tafakkur, innovatsion fikrlash, amaliy faoliyatga tayyorlik hamda muammolarni mustaqil hal etish kabi kompetensiyalarni rivojlantirish zaruratini yuzaga keltiradi. Texnologiya fanini o'qitish jarayonida kompetensiyaviy yondashuvdan foydalanish o'quvchilarning ushbu qobiliyatlarini shakllantirishga keng imkoniyat yaratib kelmoqda.

O'quvchilarda tadbirkorlik ko'nikmalarini rivojlantirish murakkab va ko'p qirrali jarayon bo'lib, u bir nechta asosiy pedagogik komponentlarga tayanadi, ayniqsa bu komponentlar nafaqat bilim berish, emas balki amaliy faoliyat, shaxsiy rivojlanish va ijtimoiy ko'nikmalarni shakllantirishni ham o'z ichiga olmoqda. Bular: **Maqsadli** (motivatsion) komponent - bu komponent o'quvchilarda tadbirkorlikka qiziqish uyg'otish va ichki motivatsiyani

shakllantirishga qaratilgan bo‘lib o‘quvchi nima uchun tadbirkorlik muhimligini tushunishi kerak. Bu yerda:

muvaffaqiyatli tadbirkorlar misoli, real hayotiy vaziyatlar, ilhomlantiruvchi muhit muhim samarasini ko‘rsatib kelmoqda.

**Mazmuniy** (kognitiv) component-bu o‘quvchilarga tadbirkorlik bo‘yicha nazariy bilimlarni berishni anglatadi:biznes asoslari, marketing va moliya tushunchalari, risk va imkoniyatlarni baholanmoqda. Mazmun zamonaviy va amaliyotga yaqin bo‘lishi lozim. **Faoliyat** (amaliy) component eng muhim qismlardan biri bo‘lib, o‘quvchilar bilimni amalda qo‘llash orqali o‘rganilmoqda: loyiha ishlari, mini-biznes tashkil etish, startap g‘oyalar ishlab chiqish, rolli o‘yinlar va simulyatsiyalar. **Refleksiv** (baholash) component. O‘quvchi o‘z faoliyatini tahlil qilishni ko‘rsatib o‘tmoqda: xatolarni aniqlash, natijalarni baholash, o‘zini rivojlantirish yo‘llarini topmoqda. Bu komponent tanqidiy fikrlashni rivojlantiradi. **Ijtimoiy-kommunikativ** component. Tadbirkorlik faqat individual emas, balki jamoaviy faoliyat hamdir: jamoada ishlash, muzokara olib borish, liderlik ko‘nikmalari, mijozlar bilan muloqot qilish hamdir.

**Innovatsion-kreativ** component. O‘quvchilarda yangi g‘oyalar yaratish qobiliyatini rivojlantiradi va kreativ fikrlash, muammolarni noodatiy hal qilish, innovatsion yondashuvlar jumlasidandir.

**Xulosa**

O‘quvchilarda tadbirkorlik ko‘nikmalarini shakllantirish samarali bo‘lishi uchun bu komponentlar o‘zaro bog‘liq holda ishlashi kerak. Faqat nazariya bilan cheklanib qolmasdan, amaliy faoliyat va shaxsiy tajriba orqali o‘qitish eng yaxshi natija beradi**.** Zamonaviy ta’lim tizimida kompetensiyaviy yondashuvning joriy etilishi o‘quvchilarning bilimlarini real hayotiy

vaziyatlarda qo‘llay olish imkoniyatini kengaytirib, ularning texnologik tafakkurini shakllantirishga xizmat qilmoqda. Shu sababli texnologiya fanini o‘qitish jarayonida o‘quvchilarning kompetensiyaviy qobiliyatlarini shakllantirish muhim pedagogik vazifalardan biri hisoblanadi. Tadqiqot jarayonida olib borilgan tahlillar shuni ko‘rsatdiki, texnologiya fanini kompetensiyaviy yondashuv asosida o‘qitish o‘quvchilarning amaliy faoliyatga bo‘lgan qiziqishini oshiradi, ularning mustaqil fikrlash qobiliyatini rivojlantiradi hamda muammoli vaziyatlarda to‘g‘ri qaror qabul qilish ko‘nikmalarini shakllantiradi. Ayniqsa, loyiha asosida o‘qitish, amaliy mashg‘ulotlar, interfaol metodlar va zamonaviy pedagogik texnologiyalardan foydalanish o‘quvchilarning texnologik bilimlarini chuqurlashtirish bilan birga, ularning kompetensiyalarini rivojlantirishga ham samarali ta’sir ko‘rsatadi.

## FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO‘YXATI

1. Ishmuhamedov R.J. Innovatsion pedagogik texnologiyalar. – Toshkent: Fan va texnologiya, 2017.
2. Musurmonova O. Ma’naviy-axloqiy tarbiya asoslari. – Toshkent: Ma’naviyat, 2017.
3. Nishonov S. Pedagogika tarixi. – Toshkent: O‘qituvchi, 2016.
4. Qodirov B. Tarbiyaviy ishlar metodikasi. – Toshkent: Fan, 2016.
5. Safarova R.H. Boshlang‘ich ta’lim pedagogikasi. – Toshkent: Fan va texnologiya, 2019.
6. Tursunov I., Nishonaliyev U. Pedagogika kursi. – Toshkent: O‘qituvchi, 2017.

7. Usmonov S., Yo‘ldoshev J. Pedagogika nazariyasi. – Toshkent: O‘qituvchi, 2018.

8. Xalikova N. Texnologiya fanini o‘qitish metodikasi. – Toshkent: Fan, 2020.

9. Xasanboyeva O. Pedagogika. – Toshkent: O‘qituvchi, 2018.

10. Yo‘ldoshev J.G‘. Ta’lim samaradorligini oshirishning pedagogik asoslari. – Toshkent: Fan, 2016.

11.Tursunova SH.B “Uzluksiz ta’lim” ilmiy uslubiy jurnal 2021 yil